

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.E.Madaliyev</b>	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
<b>N.R.Mansurova</b>	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari .....	120
<b>M.M.Maxamadjonova</b>	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi .....	132
<b>D.D.Mirzaakbarov</b>	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li .....	136
<b>A.Y.Axmedov</b>	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida .....	141
<b>N.B.Dusimbetova</b>	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati .....	146
<b>S.T.Aldasheva</b>	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....	151
<b>A.T.Nazarov</b>	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
<b>U.K.Rahmonov</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
<b>J.O.Amirov</b>	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
<b>X.O.Pardayeva</b>	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi .....	184
<b>M.Barakayev, M.Nasritdinov</b>	
Ta'limi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
<b>Sh.O.Aripov</b>	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
<b>M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova</b>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari .....	200
<b>D.T.Nishonova</b>	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
<b>S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov</b>	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish .....	213
<b>X.X.Abdurahmov</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
<b>M.M.Turg'unov</b>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi .....	223



УО'К: 378.014.15

**YANGI O'ZBEKISTONDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI  
SPORT TURIZMIGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH HOLATI TAHLILI**

**АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗКУЛЬТУРЫ О  
СПОРТИВНОМ ТУРИЗМЕ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS'  
KNOWLEDGE OF SPORTS TOURISM IN NEW UZBEKISTAN**

**Nazarov Anvarjon Turg'unboyevich**

University of Business and Science dotsenti v.b., PhD

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari o'rjanilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlanish holati tahlil qilingan.

**Аннотация**

В данной статье изучаются теоретико-методологические основы развития знаний будущих учителей физкультуры о туризме. Также было проанализировано развитие знаний будущих учителей физкультуры о спортивном туризме в Новом Узбекистане.

**Abstract**

*In this article, the theoretical and methodological foundations of the development of the knowledge of the future physical education teachers about tourism are studied. Also, the development of future physical education teachers' knowledge of sports tourism in New Uzbekistan was analyzed.*

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, sport, turizm, sport turizmi, kasbiy faoliyat, tayyorlash, komponent, empirik, pedagogik xususiyat, metodologiya.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, спорт, туризм, спортивный туризм, профессиональная деятельность, подготовка, компонент, эмпирическая, педагогическая особенность, методология.

**Key words:** physical education, sport, tourism, sports tourism, professional activity, training, component, empirical, pedagogical feature, methodology.

**KIRISH**

Yangi O'zbekistonda ta'larning yangi paradigmalarga o'tishi nafaqat talabalarning o'zini o'zi natijaviy rivojlanishiga innovatsion yondashuvlarni, balki ushbu jarayonning metodologik asoslарини takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Jumladan, "Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talabalariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqlarini orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlardan orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlanishiga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda".

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlanish, sportchilarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish ishlarini samarali tashkil qilishga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan Jumladan, tadqiqotchilar A.N.Abdiyev, R.S.Salomov, R.D.Xalmuxamedovlar jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining jismonan, aqlan rivojlanishida texnik, taktik, aqliy, funksional jihatdan tayyorgarlik jihatlarini; N.N.To'xtaboyev, A.N.Shopulatov, S.S.Tajibayev, F.Kerimov,

## PEDAGOGIKA

R.Abdumalikov, A.Muzaffarov, A.Mirzayev, A.Xudoyorovlar harakatlari o'yinlardan foydalangan holda sport mutaxassislarini tayyorgarligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, shuningdek Prezidentning 2017-yilning 31-oktyabr kundagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish" masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida belgilangan chora-tadbirlarda ko'rsatib o'tilgan talab-yoshlarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha o'tasida voleybol sport turini yanada rivojlantirish va uning ommaviyligini oshirish, ular o'tasida o'tkaziladigan musobaqalarning muntazamligini ta'minlash kabi vazifalarni belgilaydi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"ti PF - 5368 - sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-apreldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 542 - son qarorida belgilangan vazifalarini ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirining 2018-yil 18-iyuldaggi 14-tonli, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 18-iyuldaggi 54 - sonli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan qabul qilingan qarorlar ommaviy sport turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan barcha ta'im yo'nalishlarining malaka talablari kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hsoblanadi. Jumladan, 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari ham bakalavrular tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshirilishi, barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil ekanligi belgilab qo'yilgan.

Malaka talablarda Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari sifatida quyidagilar keltirilgan:

- pedagogik (umumiy o'rta va professional ta'lim ta'limda);
- ilmiy tadqiqot;
- foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish;
- sog'lomlashtirish va tiklash;
- tashkiliy-boshqaruv

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrularning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Malaka talablarda Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrularlarning sport va jismoniy tarbiya faoliyatidagi vazifalari quyidagilardan iborat ekanligi belgilangan:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llash;
- sport mashg'ulotlari nazariyasining paydo bo'lish va shakllanish evolyutsiyasini, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslarini hamda mashg'ulot texnologiyasini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning sanitariya-gigiyenik asoslarini tushunish;
- bolalar va yoshlarda tanlangan sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasini shakllantira olish, shug'ullanuvchilarda halol sport raqobatining axloqiy tamoyillarini tarbiyalay olish;
- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va professional ta'lim muassasalarida "Jismoniy tarbiya va sport"ga oid fanlardan o'rnatilgan tartibda dars berish;
- tanlangan sport turida individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha zamonaviy metodikalarni qo'llagan holda sport oriyentatsiyasini va saralash tizimini amalga oshira olish;
- bolalar va o'smirlar sporti sohasida va ommaviy razryadlar sportchilar bilan ishlash bo'yicha aniq mashg'ulotlarning uzoq muddatga mo'ljallangan tezkor reja hamda dasturlarni ishlab chiqsa olish;
- tanlangan sport furi bo'yicha bolalar va o'smirlar sportida ommaviy razryadlar sportchilari

bilan mustaqil ravishda sport mashg'ulotlarini olib borish;

- mashg'ulotlarni olib borishda xavfsizlik texnikasini ta'minlay olish;

- tanlangan sport turi uchun dolzarb hisoblangan pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish vositalari va usullarini qo'llay olish;

- rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Malaka talablarida Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyasiga qo'yilayotgan talablar quyidagicha keltirilgan:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llash;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;

- sport mashg'uloti nazariyasining paydo bo'lish va shaklanish evolyutsiyasini, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslarini harnda mashg'ulot texnologiyasini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning sanitariya-gigiyenik asoslarini tushunish;

- bolalar va yoshlarda tanlangan sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasini shakillantira olish, shug'ullanuvchilarda halol sport raqobatining axloqiy tamoyillarini tarbiyalay olish;

- tanlangan sport turida individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha zamonaviy metodikalarni qo'llagan holda sport orientetsiyasi va saralashi tizimini amalga oshira olish;

- bolalar va o'smirlar sporti sohasida ommaviy razryadlar sportchilar bilan ishlash bo'yicha aniq mashg'ulotlarning uzoq muddatga mo'ljallangan va tezkor va hamda dasturlarni ishlab chiqa olish;

- tanlangan sport turi uchun dolzarb hisoblangan pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish vositalari va usullarini qo'llay olish;

- rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish qobiliyat;

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruvi organlari hujjatlarini amaliy qo'llay olish;

- quyi tarkibiy bo'limlarda tezkor ish rejalarini tuzish va ularning bajarilishini ta'minlay olish,

- innovatsion g'oyalardan foydalanishga tayyor bo'lish.

## XULOSA

Bizningcha, yurtimizda jismoniy madaniyat sohasida zamonaviy mutaxassislar tayyorlash tizimi mukammal darajada tashkil etilgan. Sohada yetakchi va markaziy oliv o'quv yurti hisoblanmish O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, shuningdek viloyatlardagi pedagogika yo'nalishidagi OTMlarning jismoniy madaniyat yo'nalishlarida ko'plab oliv ma'lumotli jismoniy madaniyat mutaxassislari, sport murabbiylari tayyorlanadi. Mazkur oliv dargohlarida mamlakatimizning sohaning eng yetakchi olimlari va sport murabbiylari bo'lajak mutaxassislarga saboq beradilar. Undan tashqari Respublika viloyatlarining universitetlari, pedagogika institutlari qoshidagi mavjud jismoniy tarbiya fakultetlari ta'lif tizimini ko'plab oliv ma'lumotli jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan taminlaydi. Shuningdek, keyingi yillarda tashkil etilgan Olimpiya zahiralari kollejlarida sportchilar tayyorlash bilan birga o'rta maxsus ma'lumotli sport murabbiylari ham tayyorlanadi. Respublikada o'rta maxsus kasb ta'limi va Oliy ta'lim tizimida jismoniy madaniyat sohasi mutaxassislari tayyorlashning ilmiy – metodik ta'minoti to'la hozirgi zamon talablari asosida tashkil etilgan. Ya'ni ta'lif muassasalari puxta ishlangan DTS va o'quv dasturlari, darsliklar, turli xildagi o'quv qo'llanmalar bilan taminlangan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son qarori. Xalq so'zi gazetasining 2017-yil 6-iyundagi 111 (6805)-soni.

**PEDAGOGIKA**

2. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagи "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 apreldagi "Davlat ta'lif muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 542 - son qarori
4. Gozalova M., Shchikanov A., Vernigor A., Bagdasarian V. Sports tourism.  
[https://translated.turbopages.org/proxy\\_u//https/en.wikipedia.org/wiki/Sports\\_tourism#cite\\_note-2](https://translated.turbopages.org/proxy_u//https/en.wikipedia.org/wiki/Sports_tourism#cite_note-2)
5. Иванников В.А., Эйдман Е.В. Структура волевых качеств по данным самооценки // Психологический журнал. – Москва, 1990. – №3. – С. 39-50.
6. Ильин Е.П. Психология воли. – СПб.: Питер, 2009. – С.146.
7. Норқобилов М.Н., Мирходжаева З.С., Маҳмудов В.В. Жисмоний маданиятва спорт машғулотларида соғлом турмуш тарзини талабалар онгига сингдиришда педагогик ёндашувлар. Монография. Тошкент.: ТИҚХММИ, 2019, -Б. 4.
8. Теория и методика спортивного туризма : учебник / под ред. В. А. Тай- мазова и Ю. Н. Федотова. – М. : Советский спорт, 2014. –С 133.